



TIL VA JAMIYAT O'RTASIDAGI MUNOSABAT

HASANJONOVA MOHINUR ASILJON QIZI

Qo'qon universiteti Andijon filiali

IT va ijtimoiy-gumanitar fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi 25-13 guruh talabasi

E-mail: hasanjonovamohinur@gmail.com

Tel: +998 94 876-71-77

Annotatsiya: Ushbu maqolada til jamiyatning muloqot va o'zaro munosabat vositasi sifatida jamiyat bilan uzviy bog'liq holda rivojlanishi o'rganiladi. Ma'lumki, til faqatgina insonlar o'rtasida aloqa o'rnatish quroli bo'libgina qolmay, balki insoniyatning dunyoqarashi va kelajakka bo'lgan qarashlarini ham aks ettiradi. Jamiyat esa o'zaro bog'langan kishilar, ularning qadriyatlari, an'analari, shuningdek iqtisodiy va ijtimoiy tizimlar majmuasidan iborat ekanligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: til, jamiyat, insonlar, munosabat, taraqqiyot, madaniyat, dunyo qarash, siyosat, iqtisod, o'zgarishlar.

Abstract: This article examines the development of language as a means of communication and social interaction that is closely connected with society. It is well known that language is not only a tool for establishing communication among people, but also a reflection of humanity's worldview and perspectives on the future. The article also discusses society as a complex of interconnected individuals, their values, traditions, as well as economic and social structures.

Keywords: language, society, people, relationships, development, culture, worldview, politics, economy, changes.

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие языка как средства общения и социального взаимодействия, тесно связанного с



обществом. Известно, что язык служит не только инструментом для установления коммуникации между людьми, но и отражает мировоззрение человечества и его взгляды на будущее. Также обсуждается общество как система взаимосвязанных людей, их ценностей, традиций, а также экономических и социальных структур.

Ключевые слова: язык, общество, люди, отношения, развитие, культура, мировоззрение, политика, экономика, изменения.

Bugungi kunda til va jamiyat o'rtasidagi munosabat inson hayotining barcha jabhalarida muhim ilmiy muammo sifatida e'tirof etib kelinadi. Jamiyatda til muloqotning asosiy vositasi bo'lishi bilan birga, madaniy hayot, tarixiy tajriba va ijtimoiy tafakkur darajasining ifodasi ham hisoblanadi. Til taraqqiyotiga jamiyatda yuz beradigan barcha hodisalar o'z navbatida bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bularga misol qilib siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni olishimiz mumkin. Shu jihatdan, til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ilmiy asosda o'rganish ijtimoiy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tilshunos olim Ferdinand de Sossyur ham, "Til — bu faqat so'z va grammatik qoidalar majmuasi emas, balki jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatni shakllantiruvchi vosita" — deb ta'kidlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, Sossyur ham tilni faqatgina grammatik qoidalar va leksik birliklar yig'indisi sifatida emas, balki ijtimoiy hodisa deb qaragan. Sossyurning nazariyasiga ko'ra, til jamiyat tomonidan birgalikda yaratiladi va qo'llaniladi, shu sababli u individual emas, balki ijtimoiy tabiatga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Jamiyat a'zolari til orqali o'zaro muloqotga kirishadi, tarix, ijtimoiy tajriba, qadriyat va me'yorlar avloddan avlodga uzatiladi. Shuningdek, til kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita vazifasini ham bajaradi. Ya'ni, insonlar o'z fikrini ifodalash, kelishuvga erishish, bahs yuritish va hamkorlik qilish jarayonida tilga tayanadi. Shu



jihatdan, til jamiyatning ichki tuzilishini, ijtimoiy rollar va munosabatlar tizimini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Demak, Sossyur ta'kidlaganidek, til – bu faqat lingvistik birliklar tizimi emas, balki jamiyatni birlashtiruvchi va ijtimoiy aloqalarni yuzaga keltiruvchi asosiy kommunikativ mexanizmdir.

Nemis olimi Vilgelm fon Gumboldt ham til va jamiyat o'rtasidagi munosabat haqida o'z fikrlarini keltirgan. Gumboldt nazariyasining markaziy g'oyasi — til xalq ruhining bevosita ifodasi ekanidir. Uning fikricha, har bir xalq o'ziga xos tarix, madaniyat, urf-odat va ijtimoiy tajribaga ega bo'lib, bularning barchasi til orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun tillar o'rtasidagi farq faqat grammatik yoki fonetik tafovut bilan emas, balki jamiyatlarning dunyoni idrok etish usuli bilan bog'liq. Bundan ko'rinadiki, Gumboldt tilni tayyor va o'zgarmas tizim sifatida emas, balki jamiyat bilan birga yashab, rivojlanib boruvchi tirik hodisa deb qaraydi. Olim tilni faqat aloqa vositasi emas, balki insonlarning borliqni idrok etish usulini belgilovchi omil sifatida talqin qiladi. Jamiyat taraqqiyoti, madaniy muhit va ijtimoiy tajriba tilning shakllanishi va boyishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu sababli turli millat va elatlarda urf-odatlar, an'analar hamda qadriyatlarning xilma-xilligi ularning tillarida o'ziga xos birliklar, iboralar va ma'no tizimlarining shakllanishiga olib keladi. Natijada, har bir xalq tili uning milliy o'zligini va madaniy betakrorligini ifodalovchi muhim belgi sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqorida bejizga hayotiy omillar, siyosiy, madaniy va iqtisodiy o'zgarishlar tilimiz va jamiyatimizga ta'sir ko'rsatadi, deb ta'kidlamadik. Sababi shundaki, bugungi globallashib borayotgan zamonda kundan kunga yangi texnologiyalar, uskunalar va ilmiy kashfiyotlar paydo bo'lyapti, shuningdek, chet tillaridan ko'plab so'z va iboralar kundalik muloqotimizga kirib kelmoqda. Buning natijasida tilimiz doimiy ravishda o'zgarib, boyib boradi, yangi leksik birliklar va iboralar shakllanadi. Shu bilan birga, tilning jamiyat bilan uzviy bog'liqligi yanada



yaqqol namoyon bo‘ladi: u nafaqat muloqot vositasi, balki ijtimoiy tajriba, madaniy qadriyatlar va bilimlarni avloddan-avlodga yetkazuvchi vosita sifatida ishlaydi.

Texnologik taraqqiyot va global madaniy ta’sir tilning boyishini tezlashtiradi, yangi so‘z va iboralar muloqotni yanada boyitadi, odamlar o‘rtasida fikr almashish va bilimni uzatish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, til jamiyat a’zolari uchun nafaqat kundalik aloqa vositasi, balki qadriyatlarni yetkazish va yangiliklarni qabul qilish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, jamiyatning turli qatlamlarida turli xil madaniy va ijtimoiy tajribalar mavjud bo‘lib, ular til orqali ifodalanadi. Har bir guruh o‘ziga xos uslub va iboralarni yaratadi, yangi texnologiyalar va yangiliklar esa ushbu jarayonni yanada tezlashtiradi. Shu jihatdan, til va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik ikki tomonlama bo‘lib, bir tomondan jamiyat tilni shakllantiradi, boshqa tomondan til jamiyat hayotini boyitadi va unga moslashadi.

Xulosa: Zamonaviy globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida til doimiy ravishda rivojlanib boradi, jamiyatning ehtiyojlariga javob beradi va muloqot jarayonini boyitadi. Tilning bu o‘zgarishi, uning jamiyat bilan uzviy bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatadi va til orqali insonlarning madaniy, ijtimoiy va tarixiy tajribasi uzluksiz ravishda avloddan-avlodga yetkaziladi, Sossyur va Gumboldt nazariyalarida ta’kidlanganidek, til jamiyatning hayotiy hodisasi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tilshunoslik nazariyasi. A.Turobov
https://arm.samdchti.uz/library/book_view/805
2. Tilshunoslik nazariyasi. N.Uluqov <https://jdpdpu.uz/wp-content/uploads/2021/03/Tilshunoslik-nazariyasi.-Nosirjon-Uluqov.pdf>



3. Ashurova.S.A (2025) TIL VA JAMIYAT O'ZARO MUNOSABATI
<https://globalconferences.uz/index.php/yangi/article/download/2616/2151>
4. Musurmanova.Sh (2025) TIL VA JAMIYAT O'RTASIDAGI
MUNOSABATLAR <https://inlibrary.uz/index.php/ix/article/view/83631>